

BUGUNGI KUNDA MILLIY KONSEPTOSFERALAR TADQIQINING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKKA DOIR ASPEKTLARI

Amaliy Ingliz Tili Kafedrası

I. Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Zakirova Shirin Irgashevna Katta O'kituvchi

Har qanday jamiyatning tili o'sha jamiyat madaniyatining tarkibiy qismi sanaladi, til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liqdir, madaniyatning rivojlanishisiz tilning rivojlanishini tasavvur qilish mumkin emas. E.Sepir fikri bilan aytganda "ma'lum bir jamiyatning nima qilayotgani va nimani o'ylayotganiga ko'ra madaniyati aniqlanadi, til esa, qanday o'ylayotganini aks ettiradi."¹. Jamiyatdagi moddiy va madaniy qiymatlarning tarixiy o'zgarishi bilan bir qatorda, albatta, tilda ham o'zgarishlar sodir bo'ladi va bu o'zgarishlar tilning barcha qatlamlarida, eng avvalo, leksik qatlamda kuzatiladi. Til, ko'pgina yetakchi mutaxassislar e'tirof etgandek, kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bir bosqichida tadrijiy ravishda semiotik tizim sifatida vujudga kelib, belgilar sistemasida polifunksional xususiyatga ega hodisa sifatida rivojlangan tizimdir.

Tilshunoslik ham boshqa fanlar singari har bir davrda inson ongidagi o'zgarishlarga va taraqqiyotga guvoh bo'lmoqda. Agar XIX asr qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asri bo'lib tarixda qolgan bo'lsa, XX asr tilshunoslikda strukturalizm davri deb nom qoldirdi, qayta tiklanish davri sifatida boshlangan XXI asrda esa antroposentrik paradigma yetakchilik qila boshladi. Shuni ta'kidlash lozimki, lingvomadaniyatshunoslikka oid bir qator tadqiqotlarda tilga antroposentrik yondashuv nemis tilshunosi V.fon Gumboldt tomonidan ilgari surilganligi haqida qaydlar mavjud². Shu g'oyaga ergashgan holda, tilshunoslarning diqqat markazida muayyan madaniyat vakili hisoblanmish til sohiblari, ya'ni inson ustuvor o'rinda talqin qilina boshlandi³.

Butun borliqdagi narsa-hodisalarni nomlash ularning sifati, harakatlarining til egalari tomonidan his qilinishi va o'ziga xos idroki tarzidan kelib chiqadi. Ushbu jarayon asosida aynan inson turganligi uchun ham ushbu obyektiv bo'lgan hodisalarning mohiyatini insondan ajratib izohlash mantiqqa ziddir. Demak, aytish mumkinki, antroposentrik paradigmada til – inson shaxsini tarkib toptiruvchi asosiy

¹ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва, 1993. – С. 37.

² Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984. – С. 247.

³ Кубрякова Е. С. Язык и Знание: На пути получения знаний в языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 9; Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – Москва: Издательство АСТ, Восток-Запад, 2007. – С. 10; Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта Наук, 2007. – С. 72.



unsur hisoblanadi. Xalqlar madaniyati kishilar o'rtasidagi munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiq qilinayotgan yangi yo'nalish, ya'ni, lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan, tilda o'z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan sohasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Ijtimoiy ongning shakllanish omillarini tahlil qilish turli madaniyatlarning o'zaro munosabatlarini va o'zaro tushunish mexanizmlarini tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Bu esa, o'z navbatida, tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlarining tadqiq qilinishiga asoslangan yangi tadqiqotlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Tilda lisoniy ong va madaniy qadriyatlar obyektiv olam tasvirining mental modellari ko'rinishida aks etadi va ifodalanadi. Shu asosda, tilda madaniy an'analar kontekstiga tayanilgan holda olamni milliy idrok qilish va tushunish kategoriyalari shakllanadi.

Lingvomadaniyatshunoslik ilmiy va o'quv fani sifatida tilshunoslikda XX asrning 90-yillari o'rtalarida tilga madaniy xazina sifatida e'tiborning kuchayishi natijasida hayotga tatbiq etildi, bu jarayonga Y.D. Apresyan, N.D. Arutyunova, A. Vebiskaya, V.V. Vorobyov, V.A. Maslova, E. Sepir, Y.S. Stepanov, V.N. Teliya, N.I. Tolstoy kabi rus tilshunoslari, ingliz olimlaridan J.Lakoff, M.Jonson, E.Sepir, B.Uorf, shuningdek, o'zbek tilshunoslari Sh.S.Safarov, A.Hojiev, O'.Q.Yusupov, A.E.Mamatov, D.U.Ashurova, M.R.Galieva, M.M.Mirtojiev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, G.H.Boqieva, Sh.S.Sirojiddinovlar o'z hissalarini qo'shdilar.

L.Vitgenshteyn tomonidan bu yangi ilmiy paradigma shakllanishi jarayoniga "Olam narsalarning emas, balki faktlarning yig'indisidan iborat" deya ta'rif berildi⁴. M.Xaydegger, M.Veber, G.Fransev, N.Chavchavadze esa bu – eng oliy insoniy fazilatlar orqali oliy qadriyatlarni amalga oshirishdir, degan ta'rifni keltirib o'tadilar⁵.

Lingvomadaniyatshunoslikning etnolingvistik yo'nalishi haqida gapiradigan bo'lsak, uning ildizlari Yevropada V.Gumboldtga, Amerikada esa – F.Boas, E.Sepir, B.Uorflarga borib taqaladi⁶.

Bu jarayonga taniqli o'zbek tilshunos olimi N.M.Mahmudov quyidagicha fikr bildiradi: "lingvokulturologiya tilni madaniyat hodisasi sifatida o'rganadi. Bu dunyoni milliy til prizmasi orqali o'ziga xos tarzda ko'rish bo'lib, bunda til alohida milliy mentallikning ifodachisi sifatida ishtirok etadi. Bugun lingvokulturologiya rus va boshqa xorijiy tilshunosliklarda alohida lingvistik yo'nalish sifatida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Vazifasi til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet

⁴ Monk, Ray. Ludwig Wittgenstein: The Duty of Genius. — NY: Free Press, 1990. — C. 71.

⁵ Heidegger M. Annäherung an Nietzsche bis 1930 // Synthesis Philosophica. 1998. 13 (1). C. 373-385.

⁶ Этническое и языковое самосознание: Материалы конференции. — Москва, 1995.



o'rtasidagi o'zaro munosabatni tavsiyalash va o'rganishdan iborat bo'lgan bu yo'nalish o'zbek tilshunosligida ko'proq qiyosiy aspektidagi izlanishlarda endi–endi boshlanmoqda”⁷.

T.Volchok mentalitetni o'rganishning tarbiyaviy ahamiyatiga ko'proq e'tibor qaratadi, uning fikriga ko'ra, insoniy qadriyatlar xalq mentalitetining ajralmas qismi hisoblanadi va bu o'quvchilarni o'z hayotlarining mazmuni, o'tmishdagi ajdodlarining tajribalari haqida o'ylashga undaydi, zero insoniy qadriyatlarga o'tmish, bugungi kun va kelajak o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydigan vositalardir. “Har qanday madaniyatda, – deb yozadi olim, – umuminsoniy qadriyatlar mavjud bo'lib, turli xalqlarda ularning ahamiyati va mutanosibligi masalalari sezilarli darajada farq qiladi. Shuning uchun axloqiy ustunliklar mavzusi u yoki bu etnik jamoaning mentalitetini tushunishda nihoyatda muhim sanaladi”. Adabiyotdagi mentalitet masalalari bo'yicha uzoq vaqt mobaynida izlanishlar olib borgan G.Gachev “mentalitet” atamasi o'rniga “kosmo–psixo–logos”, yoki “olaning milliy qiyofasi” tushunchasini kiritadi. Olaning milliy qiyofasini ifodalashda G.Gachev bir butunlikni tashkil etuvchi: tabiat, turmush tarzi, til, folklor, nazmiy obrazlar, makon nisbiyligi va boshqalarni o'z ichiga olgan real hayotdagi milliy tushunchalarga asoslanadi.

Milliy xarakter asosida kommunikativ xulq–atvor xususiyatlari yotadi, bu xususiyatlar, o'z navbatida, madaniyat turi, shuningdek, ijtimoiy–madaniy munosabatlar va qadriyatlarga ko'ra aniqlanadi. Masalan, inglizlarga vazminlik, sovuqqonlik, boshqalarning ishiga aralashmaslik, o'zini hurmat qilish, bosiqlik, xushmuomalalik, toqatlilik, sertakalluflik, seriltifotlik, hushyorlik va chidamlilik kabi milliy xususiyatlar xos bo'lsa, o'zbek xalqi mehmondo'stlik, toqatlilik, xushmuomalalik, sertakalluflik, seriltifotlik, bag'rikenglik va chidamlilik kabi xususiyatlarga egadir. Demak, ikki xalqqa xos xususiyatlarning ba'zilar bir–biri bilan kesishadi, ba'zilar esa mutlaqo bir–biridan yiroq bo'lsada, ular o'z navbatida, o'zlari tegishli bo'lgan xalqning milliy mentaliteti haqida ma'lumot beradilar. Biz tadqiqot ishimizda mana shu milliy xususiyatlari o'zgacha bo'lgan ikki xalq og'zaki ijodining ertak janriga murojaat etdik va “o'gay ona” konseptini ikki til miqyosida tahlil qilishni mavzu qilib tanladik. Izlanish konseptologik tadqiqotlar doirasida “tildan madaniyat sari” yo'nalishida harakat qiladi.

⁷ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 51.



References:

- 1.Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва,1993. – С. 37.
- 2.Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984. – С. 247.
- 3.Кубрякова Е. С. Язык и Знание: На пути получения знаний в языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 9; Попова З. Д., Стернин И. А.

